

**IX-XIII ASRLARDA TERMIZNING UY-RO‘ZG‘OR  
VA XO‘JALIK BUYUMLARI**

Narkulova Zulayxo<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi

---

**ARTICLE INFO**

**ARTICLE HISTORY:**

*Received: 27.11.2025*

*Revised: 28.12.2025*

*Accepted: 29.03.2025*


---

**ABSTRACT:**

*Ushbu maqolada Ushbu tadqiqotning obyekti Termizning IX-XIII asrlar uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlari hisoblanadi. Tadqiqot ishi bu davrda Termizda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni, shu jumladan, hunarmandchilik tarixi kulolchilik sohasida amalga erishilgan yutuqlar. Termizning VIII asr so‘ngidan XIII asr boshlarigacha davri siyosiy tarixini alohida tahlil qilishga qaratilgan.*

**KEYWORDS:**

*Eski Termiz, oshxona idishlari, Uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik idishlari, Maxsus (alohida qabul, bazm va marosimlarda ishlatiladigan idishlar), Tuvak, Xurmacha, Qopqoq.*



**KIRISH.** Tarix – xalq ma’naviyatining asosi, unda milliy g’oya, siyosat, iqtisod, madaniyat, ma’naviyat, eng muhimi ota-bobolar o’tmishi mujassam. Bugun axborot texnologiyalari yuksak rivoj topib, yer yuzining olis burchagida yuz bergen voqeа butun dunyoda aks-sado berayotir. Globallashuv jarayonlari kechayotgan pallada muhtaram Prezidentimiz “havas qilsa arziydigan ulug’ tariximiz, buyuk ajdodlarimiz” haqidagi noyob tarixiy ma'lumotlarni dunyo ahliga faxr va g’urur ila, baralla yetkazish imkoniyatimiz kengaydi. Qolaversa, xalqimizning taqdirida ro'y bergen, tariximizdan o'rin olgan goh shonli, goh tushkun va foyiali hodisalar Vatanini sevuvchi har bir insonni befarq qoldirmaydi.

Tarix – faqat shu fan sohasining emas, balki millatning har bir vakiliga birdek daxldordir. Bu haqiqatni chuqur anglash fursati allaqachon yetgan<sup>7</sup>. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ana shu muhim omilni tez-tez esga oladi. Masalan, o'tgan yilning noyabr

<sup>7</sup> Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистонда Эркин ва Фаровон Яшайлик! Тошкент. 2021.

oyidagi uchrashuvda davlatimiz rahbari harbiyalarimizning tarix haqidagi bilimlari bilan qiziqdi:

– Mana, Amir Temur bobomiz bilan hammamiz faxrlanamiz. Lekin, xolisona aytaylik, ulug' Sohibqironning “Tuzuklar”ini qancha askar o'qigan? – yoki buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining hayoti va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholanki, bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi<sup>8</sup>.

Davlatimiz rahbari askarlar harbiy qasamyod qilishdan oldin albatta O'zbekiston tarixi fani va “Temur tuzuklari”dan sinov topshirishi kerakligini ta'kidladi. Ilg'or harbiy qismlarga ulug' sarkardalarimizning nomini berish, mohir lashkarboshi bobolarimiz haqida ilmiy tadqiqotlar olib borish, badiiy kitoblar, kinolar yaratish to'g'risida ko'rsatma berdi.

Darhaqiqat, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ammo ochig'ini aytganda, olamshumul zotlar haqidagi bilimlarimiz ko'pincha shu faxrnanish bilangina tugashi sir emas. “Masalan, tibbiyotchilarimiz stolida Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” turadimi? Harbiylar, umuman rahbar xodimlarning necha foizi “Temur tuzuklari”dan xabardor? Astronomlar “Ziji Jadidiy Ko'ragoniy” asarini xuddi karra jadvalidek bilishadimi? Al-Xorazmiyning “Al-jabr val muqobala” asarini, Abu Rayhon Beruniy asarlarini har bir maktab o'quvchisi yaxshi bilishi uchun nimalar qilishimiz kerak”?

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z suhbatlarida ushbu haqiqatni bot-bot tilga oladi, bugungi islohotlar jarayonida tarixni chuqur bilishning ahamiyatini ta'kidlaydi: “Suvorov mifiktabini Temurbeklar deb o'zgartirdik. Gap nomda emas, g'oyada, mafkurada, g'ururda! Bog'chadayoq bolalarimiz Vatanni, tarixni, madhiyani, bayroqni, Amir Temurni, Birinchi Prezidentimizni... yaxshi o'rganishsin...”

Ma'lumotlarga ko'rta, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi beshta mustaqil fondlarda jami 25 ming atrofida qo'lyozmalar, 40 mingdan ortiq toshbosmalar, 5000 dan ortiq tarixiy hujjatlar ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelinadi. Ularda jami 300 mingdan ziyod asarlar nusxalari mavjud, deyiladi. Ushbu institut Yuneskoning insoniyat milliy-madaniy va moddiy boyliklari ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu beqiyos boyliklarimiz sinchiklab o'rganilsa, qanchalab tarixiy filmlar, ko'rsatuvlar uchun dastur bo'lishi mumkin! Shu o'rinda Nobel

<sup>8</sup> Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqi.

mukofoti sohibi, fizik olim Pyer Kyurining mana bu so'zлari esga tushadi: «Musulmonlarning Andalusiyasidan bizga 30 ta kitob qoldi. O'sha kitoblarni o'qib, atomni parchalashga erishdik. Agar biz yoqib yuborgan ana o'sha buyuk Islom sivilizasiyasiga tegishli yarim million kitoblar ham qolganida nima bo'lardi? Darhaqiqat, agar o'sha kitoblarni yoqib yubormaganimizda, hozir fazodagi galaktikalar orasida sayr qilib yurgan bo'lardik».

Islom tamadduniga ulkan hissa qo'shgan allomalarning juda ko'pchiligi bizning ajdodlarimiz – Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, xorazmiylar, Nasafiyilar, Buxoriylar, Termiziylar, Shoshiylar ekanini nazarda tutsak, G'arb olimining fikri haqligi hamda biz qanchalik ulkan xazina sohibi ekanimiz ayon bo'ladi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy yozgan asarlar ro'yxatining o'ziyoq, agar mayda harflar bilan yozilsa, oltmisht varaqlik kitobcha hosil bo'lar ekan! Buyuk Britaniyaning mashhur Kembrij universitetida Xorazmiy va Ibn Sino stipendiyalari ta'sis etilishi aslo bejiz emas.

“Buyuk vatandoshlarimiz — olimlar, mutafakkirlar va aziz-avliyolar, shoir va yozuvchilar, sarkardalar, davlat arboblarining bebaho merosini keng ko'lamda o'rganish va ommalashtirish maqsadida ularning hayot yo'li va qahramonligi to'g'risida, shuningdek, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan O'zbekiston eng yangi tarixining g'oyat yorqin va unutilmas sahifalari haqida hikoya qiluvchi ilmiy-ommabop dasturlar va hujjatli filmlar turkumlarini yaratish, asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilangan.

Darhaqiqat, ko'hna va tarixiy shaharlarimiz haqida deylik, “Sharif shahar – Buxoro”, “Mardlar shahri – Termiz”, “Allomalar shahri Kesh”, “Er yuzining sayqali Samarqand”, “Toshkentnama”, “Xo'qandi Latif”... kabi turkum ko'rsatuvlari, tarix kitoblari yaratilsa, qanday ulug' ish bo'lar edi! Bu film va kitoblardan faqat o'zimiz emas, balki butun jahon ahli qiziqib, havas qilib sotib olishi uchun turli tillarga tarjima qilinsa, ayni muddao.

Ma'lumki, o'tgan asrning 30- yillarida M.E.Masson rahbarligida tashkil etilgan TAKE tomonidan katta arxeologik tadqiqotlarning tashkil etilishi , fanda hali deyarli o'rganilmagan Shimoliy Toxaristonning VII-XIII asr boshlari siyosiy tarixi davri borasida yangi sahifa ochdi.

Surxondaryo boy madaniyat va ma'rifat o'chog'i sifatida tanilgan. Vohada ko'plab aziz-avliyolar, ulamo va fuzalolar, buyuk muhaddislar mangu qo'nim topgan yurtlardandir. Ulug' ajdodlarimiz hamda payg'ambarlarimiz bilan nafaqat faxlanish, balki ulardan bizgacha qolgan hadisi-shariflari, boy ma'naviy meroslarini tadqiq va targ'ib etish burchimizdir. Bugungi kunda mamlakatimizda yagona arxeologiya sohasiga

ixtisoslashtirilgan Termiz arxeologiya muzeyida saqlanayotgan o'rta asrlar davriga oid uyro'zg'or va xo'jalik buyumlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Termizning iqtisodiy hayotida savdoning salmog'i ham katta bo'lganini ko'rishimiz mumkin. To'quvchilik, kulolchilik ham jadal sur'atlar bilan rivojlangan bo'lib, ayniqsa kundalik turmush bilan bevosita bog'liq bo'lgan kulolchilik alohida o'rin tutadi. Hunarmandchilikning bu turi yozma manbalarda ham batatsil keng yoritilgan. Jumladan, Ibn Xavqal Termizda katta daromad keltiradigan hashamatli rabotlar (karvonsaroylar) mavjudligini qayd etgandi.

Bu karvonsaroydan sharqda kulollar mahallasi bo'lgan, bu yerdagi ustalar sershasham sopollar, shu jumladan qolipda turli shakl va hajmdagi naqsh chizilgan hashamdar idish va ko'zalar tayyorlashgan. Har bir ustaxona egasining ikki yoki uchta xumdoni bo'lgan<sup>9</sup>.

XX-asrning 20-yillarigacha o'rta asrlar davri Termiz va Chag'oniyon tarixi va madaniyatini sharhlashda asosiy manba akademik V.V.Bartoldning asarlari bo'lgan. Uning arab-fors manbalarini chuqur o'rganish asosida yozilgan "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" asari Termiz va Chag'oniyon viloyatlari, ularda joylashgan qishloq va shaharlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O'rta asrlar davri Termiz moddiy madaniyatini o'rganish 1926-1928-yillarda Termiz podshohlarining Eski Termizdag'i saroyida olib borilgan arxeologik qazishmalardan boshlandi. 1936-1938-yillarda shahar tashqarisida joylashgan mudofaa qal'alari, temirchilar mahallasi va o'rta asr Termiz binolarida keng ko'lamli arxeologik qazishmalar olib borildi.

Ayniqsa, Ko'hna Termizdag'i Termiz shohlari saroyining to'liq o'rganilishi hayratlanarli. Ana shu manbalar va tarixiy ma'lumotlar asosida Termiz shahrining o'rta asrlar davri tarixiy topografiyası ishlab chiqilgan. M. E. Masson rahbarligida yaratilgan "Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining ilmiy kolleksiyalari" ("Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasisining tuplamlari")da bu davrdagi Termiz tarixi va undagi yodgorliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1969-yildan boshlab E.V.Rtveladze boshchiligidagi bir guruh san'atshunoslik ekspeditsiyasi bevosita hududdagi mavjud arxeologik yodgorliklar va ularni saqlash masalalarini ro'yxatga olish va xaritalash ishlarini boshladi. Keyinchalik u "Surxondaryo viloyatining tarixiy, arxeologik va me'moriy yodgorliklar majmuasi" deb nomlangan yirik ilmiy yo'nalishga aylandi<sup>10</sup>.

<sup>9</sup>Termiz.Buyuk yo'llar chorrahasidagi Ko'hna va yangi shahar. Sharq. Toshkent 2001.

<sup>10</sup> Ўтмишга назар 3 - маҳсус сон. Khumoyun A. Nazarov. FROM THE HISTORY OF ANCIENT CITIES OF NORTHERN BACTRIA OF THE KUSHAN PERIOD. 85-бет.

Surxondaryo viloyati yodgorliklarini ro'yxatga olish bilan birga o'rta asrlarga oid qadimiy yodgorliklarda arxeologik qazishmalar olib borildi.

Dalvarzintepa shahri yaqinida joylashgan G'armalitepe ana shunday yodgorliklarga mansub. Sh.R.Pidayev va T.J.Annayevlar o'rta asrlarda Chag'oniyon tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan<sup>11</sup>.

E.V.Rtveladze arab va fors manbalarida tilga olingan Toxariston shahar va qishloqlari nomlarini hozirda mavjud arxeologik yodgorliklar nomlari bilan solishtirdi<sup>12</sup>.

1980-yildan boshlab shimoliy-g'arbiy Toxaristonning markaziy shaharlari bo'lgan Ko'hna Termiz va Budrachtepada o'rta asr binolari va ular bilan bog'liq madaniy qatlamlarda tizimli ravishda tadqiqot olib borilmoqda. Natijada Eski Termizda o'rta asr istehkomlari, shahar turar joylari, kulollar va kulollar mahallasi, xristian cherkoylari va boshqalar o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar tufayli Termizning o'rta asr madaniyatidan dalolat beruvchi ko'plab manbalar topildi.

IX—XIII asrlarda Termiz tarixi va madaniyati masalalari quyidagi asarlarda yoritilgan: Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining «Ilmiy to'plamlari» (rahbari M.E.Masson), «Surxondaryoning o'rta asrlar davri yodgorliklari» ( Z.A.Arshavskaya, Z.A.Hakimov, E.V.Rtveladze), “O'tgan asrlar yodgorliklari” (A.S.Sagdulayev) va boshqalar. J.Ilyosov va Sh.Rahmonovlar IX—XIII asrlardagi qishloq aholisining san'ati, madaniyati, harbiy san'ati hamda Termizning mudofaa inshootlarini o'rganishda muhim tadqiqotlar olib bordilar<sup>13</sup>.

Termiz va Chag'oniyoning so'nggi o'rta asrlar davri (XVI-XIX asrlar) tarixi va madaniyati juda kam o'rganilgan. Surxondaryo viloyati hududidagi so'nggi o'rta asrlarga oid yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar Termizda XVI-XIX asrlar o'ziga xos madaniyat mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

XVI-XIX asrlarda Termiz va Chag'oniyon tarixini rivojlantirishda yozma manbalar bilan bir qatorda u yerda saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklar ham katta ahamiyatga ega. 1970-yildan boshlab butun viloyat bo'ylab so'nggi davr yodgorliklari ro'yxatga olinib, dastlabki qazishmalar olib borildi<sup>14</sup>.

Bu borada T.Annayev, Sh.Pidayevlar tomonidan To'palang suv ombori havzasida joylashgan Yoni-Kalon atrofida, Karvonsaroyda XVI-XIX asrlarga oid arxeologik

<sup>11</sup> [www.arxeologiya.uz](http://www.arxeologiya.uz)

<sup>12</sup> Ўтмишга назар 3 - маҳсус сон. Khumoyun A. Nazarov. FROM THE HISTORY OF ANCIENT CITIES OF NORTHERN BACTRIA OF THE KUSHAN PERIOD. 85-бет.

<sup>13</sup> [www.arxeologiya.uz](http://www.arxeologiya.uz)

<sup>14</sup> Bo'riyev O., Temuriylar davri manbalarida Chag'oniyon, T., 2001

qazishmalarni qayd etishimiz mumkin. Xotinrabotda joylashgan. Shuningdek, Ko'xitang va Boysun tog'lari yonbag'irlarida, Jarqo'rg'on atrofidagi o'rta asrlarning so'nggi davriga oid bir qancha yangi ob'ektlar ro'yxatga olindi. Ayniqsa, Ko'hna Termizning qo'rg'on qismida olib borilgan arxeologik qazishmalar tufayli bu davr Termiz madaniyatini yoritib beruvchi ko'plab moddiy madaniyat namunalari topildi<sup>15</sup>. Surxondaryo tarixi va bu hududdagi arxeologik yodgorliklar hamisha xorijiy mamlakatlar arxeologlari, tarixchilari va san'atshunoslarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ko'hna Termizdagi buddaviy yodgorliklardan topilgan qadimiy yozma manbalarni o'rganishga xorijlik olimlar B.Mukerji, N.Bxaatia, vengriyalik Y.Xarmatta, germaniyalik X.Xumbaxlar beqiyos hissa qo'shdilar. Mustaqillik yillarida xorijlik olimlarning Surxon vohasi tarixiga qiziqishi ortdi. Baqtriya bronza davrini o'rganishga katta hissa qo'shgan ya bu jahon hamjamiyatining Surxon vohasi tarixi, qadimiy madaniyati bilan yaqindan tanishishiga Filip Koll (AQSh), Ditrix Xaff, Kay Kanut kabi olimlarning hissasi bo'lgan. , Mayk Teufer (Germaniya), ilk temir davri yodgorliklari - Nikolos Baroffka (Germaniya), Vu Xin (Xitoy), antik davr arxeologiyasi - Per Lerish, Frans Grene, Klod Rapin (Fransiya), Kato Kyudzo, K.Tanabe (Yaponiya), Laadislav Stanco (Chexiya) va boshqalarni misol qilishimiz mumkin<sup>16</sup>.

#### **IX-XIII asrlar boshlarida Termizning xo'jalik idishlari, ularning turlari quyidagicha:**

Tog'ora; Chiroqlar ; Xumlar; Xurmachalar; Shamdonlar; Filtrlovchi idish.

**Xo'jalik idishlari:** Tog'ora: kesik-konusli tanasi va tekis pastki qismi bilan; vertikal qirrasi bilan ishlangan.

Chiroqlar: moy solingan rezervuari yarimsharsimon yuqori qismida kesilgan konussimon chiroqdonning devor qismi vertikal holatda ishlangan. Maxsus olov yoqadigan qismi yuqori qismidan pastga tomon qiya shaklda ishlangan. Chiroqdonning tagdoni tekis konussimon shaklda ishlangan.

**Katta idish-tovoqlar:** katta yumaloq xumlar tuxumsimon ko'rinishda ishlangan. Bitta tutqichli va tutqichsiz ishlangan. Xumlarni yasash davomida bir qancha jaroyonlardan o'tgan bo'lib, xum mustahkam pishiq bo'lishi uchun shamot qo'shib tayyorlangan. Bu aralashmalsiz tayyorlanganda xum aksar hollarda sinish ehtimoli ortadi. Xum uch xil shaklda hosil bo'ladi: xumning keng va qalin ishlangan devori va tuxumsimon shakldagi korpusi, mustahkam tagdondan iborat bo'ladi<sup>17</sup>.

<sup>15</sup> Pidayev Sh. Qadimiy Termiz. Toshkent.2000.

<sup>16</sup> [www.arxeologiya.uz](http://www.arxeologiya.uz)

<sup>17</sup> Аниев. Т.Ж.Раннесредневековые поселение Северного Тохаристана. Ташкент.1988. С. 9-12.

2018 yilda Eski Termiz shahristoni mudofaa devorining shimoliy tomonida joylashgan o'rta asrlarga oid xumdon va uning atrofidagi kulolchilik ustaxonasi ochib o'rganildi. Qazishmaning o'lchami 15x20 m kv ni tashkil etadi. Yodgorlik ustidagi sochilib yotgan pishiq g'ishtlarning siniqlari va turli shakldagi sopol buyumlarning bo'laklari, ayniqsa ko'p miqdordagi uchraydigan simob ko'zachalari uning quyi qatlamida kulolchilik xumdoni borligidan darak berardi.

- **Xo'jalik idishlari turlari quyidagicha:**

- ***Chiroqlar; Tog'ora ,Xumlar; Xumcha, Xurmachalar; Shamdonlar; Filtrlovchi idish***

- Chiroqlar: moy solingen rezervuari yarimsharsimon yuqori qismida kesilgan konussimon chiroqdonning devor qismi vertikal holatda ishlangan. Maxsus olov yoqadigan qismi yuqori qismidan pastga tomon qiya shaklda ishlangan. Chiroqdonning tagdoni tekis konussimon shaklda ishlangan.

**Ko'zalar.** Ular ikki guruhgaga bo'lingan: tor bo'yinli (gardishining diametri - 6,8 sm) va keng og'izli (diametri - 12, 16, 18 sm). Ko'zalar bo'yin qismi odatda silindrsimon, gorizontal bezaklar bilan bezatilgan. Gardishi ichkariga egilgan yoki bir oz tashqariga egilgan holda ishlangan. Ko'zalar odatda bitta tutqichga ega, ikki baldoqli ko'zlar nisbatan kamroq uchraydi. Ko'zaning tashqi qismida ustki yuzada o'simliklar yoki chuqurchalar bilan bezatilgan. Ko'zalarda baldoq qismlari yuqori bo'yin qismidan qorin qqismiga borib tutashgan. Ko'zalar bezakli, qoida tariqasida, bo'yin va yelkada qismida qo'llanilgan. Bezak usullari juda xilma-xil, konsentrik tirqishli gorizontal chiziqlar, to'lqinli chiziqlar, Ko'zalar bezakli, qoida tariqasida, bo'yin va yelka qismida ishlash texnikasi juda xilma-xil, konsentrik tirqishli gorizontal chiziqlar, to'lqinli chiziqlar, ko'rinishli to'lqinsimon bezaklar, gulbarglari bilan rozelarning qilingan tasvirlari mavjud<sup>18</sup>. (3-7 RASM).



**Svam 495.** Ko'za. IX-XII asrlarga oid Eski Termizdan topilgan bo'lib, o'lchami: balandligi – 15.5 sm, eni-4.5 tagdoni-4 sm ni tashkil etadi. Ko'zaning gardish qismi saqlangan bo'lib, qayrilmagan. Ko'zaning gardishidan bo'yin qismi bir xil shaklda ishlangan, rezervuaridan tagdoni tomon torayib borgan. Ko'zaning tashqi devor qismida

<sup>18</sup> Э.В.Ртвеладзе. Краеведение Сурхандаръи (Сборник статей). ТАШКЕНТ «УЗБЕКИСТАН» 1989.68-стр.

kuygan izlari mavjud. Tagdoni tekis disksimon ko'rinishda ishlangan saqlanish holati yaxshi.


**Svam 3529/1.** Bir baldoqli ko'za. IX-XII asrlarga oid Eski Termizdan topilgan bo'lib, o'lchami: balandligi – 14 sm, eni-4.5 tagdoni-4 sm ni tashkil etadi. Ko'zaning gardish qismi saqlangan bo'lib, gardishi tashqi qismiga tomon qayrilmagan. Ko'zaning baldog'i gardishidan qismidan rezervuari tomon birikib ketgan. Ko'zaning rezervuaridan tagdoni tomon torayib borgan. Ko'zaning tashqi devor qismida kuygan izlari mavjud. Tagdoni tekis disksimon ko'rinishda ishlangan saqlanish holati yaxshi. (RASM)



**Svam 3529/1.** Bir baldoqli ko'za. IX-XII asrlar

**Svam 495.** Ko'za. IX-XII asrlar.

**Qozonlar** Qozonlar. Ularning tanasi, qoida tariqasida, yarim sharsimon, ba'zida silindrsimon bo'lgan alohida idishlar mavjud. Loy va shamot aralashmasi bilan tayyorlangandan so'ng qozonlarning ustiga qopqoq qo'yilib ancha vaqt yonmagan olov ya'ni tutatib qo'yilgan. Qozonlarning yuqori qismining diametri odatda (diametri 20, 22, 26 sm) . qozonlar yumaloq shaklda ishlangan. Tutqichlar ishlangan. Qozon bezaklari quyidagi turlar bilan ifodalanadi: qozonlarning yuqori qismida angoblangan turli bezaklar qo'llanilgan. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda bo'yalgan idishlar tayyorlashning qadimiyligi an'anasi qayta tiklanmoqda. Bu borada turli qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar buni turkiy ko'chmanchi aholining ta'siri bilan izohlaydilar. Boshqalar – oqim qishloq aholisi shaharlarga ko'chib o'tishi bilan izohlaydi. XII asrga oid idishlar bo'yalgan (ko'zalar, qopqoqlar; qozonlar). Qozonlar singan taqdirda ta'mirlangan tashlab yuborilmagan. Bu qozonlarning devorlarining parchalaridan ko'rish mumkin, ular yorilib ketganda, metall qavslar bilan o'rnatilgan.



**Svam 3550. Qozon. XI-XII asrlar. O'Ichami: h-35 db-30 dg-23,5**

**Katta idish-tovoqlar:** katta yumaloq xumlar tuxumsimon ko'rinishda ishlangan. Bitta tutqichli va tutqichsiz ishlangan. Xumlarni yasash davomida bir qancha jaroyonlardan o'tgan bo'lib, xum mustahkam pishiq bo'lishi uchun shamot qo'shib tayyorlangan. Bu aralashmalarsiz tayyorlanganda xum aksar hollarda sinish ehtimoli ortadi. Xum uch xil shaklda hosil bo'ladi: xumning keng va qalin ishlangan devori va tuxumsimon shakldagi korpusi, mustahkam tagdondan iborat bo'ladi<sup>19</sup>.



**Tuvaklar:** oshxona idishlari orasida tuvaklarning o'ziga xos o'z o'rni bor. Odatda gardishining diametri 10-15-16 sm oralig'ida bo'ladi. Tuvaklarning formasi odatda keng

<sup>19</sup> Аннаев. Т.Ж.Раннесредневековые поселение Северного Токаристана. Ташкент.1988. С. 9-12.

bo'lib gardishidan tagdoni tomon torayib borgan. Ba'zan ularning gardishi ichkariga va tashqariga, yoki faqat ichki qismiga qarab ishlangan. Ko'ndalang kesimdag'i oval shaklidagi tutqichlar, profilli chuqurlashtirilgan ustki gardishidan bir uchidan baldoq qismi biriktirilgan hamda qorin qismiga baldoq qismining pastki qismi tutashgan.

2018 yilda Eski Termiz shahristoni mudofaa devorining shimoliy tomonida joylashgan o'rta asrlarga oid xumdon va uning atrofidagi kulolchilik ustaxonasi ochib o'rganildi. Qazishmaning o'lchami 15x20 m kv ni tashkil etadi. Yodgorlik ustidagi sochilib yotgan pishiq g'ishtlarning siniqlari va turli shakldagi sopol buyumlarning bo'laklari, ayniqsa ko'p miqdordagi uchraydigan simob ko'zachalari uning quyi qatlamida kulolchilik xumdoni borligidan darak berardi.



2-rasm. Rabod hududidagi kulolchilik xumdoni.

Eski Termizning kulolchilik xumdonlari shaharning o'rta asrlardagi yirik ustaxonalari sifatida savdo hunarmandchilik taraqqiyotida yetakchilik qilgan. Termiz o'rta asrlarda O'zbekistonning janubdag'i yirik savdo hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan edi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki Movarounnahr buttun Markaziy Osiyo tarixida o'z o'rni beqiyosligi bilan ajralib tursa Eski Termiz va Chag'oniyon tarixan Movarounnahrning eng rivojlangan va qulay strategik markazlaridan biri sanalganini ko'rishimiz mumkin. Disartatsiyada yoritilgan davr mobaynida bu ikki daryo oralig'ida tashkil topgan barcha davlatlar yoinki arab xalifaligidan tortib Saljuqiylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlati ham Shimoliy Tohariston, Termiz va uning atrofi, va Chag'oniyon ustidan o'z nazoratlarini o'rnatishga urinishgan. Bu uzoq davr mobaynida yuz bergen katta siyosiy voqealar albatta yozma manbalar, undan so'ng arxeologik manbalar asosida yoritilib kelgan bo'lsada ko'plab kamchiliklar va chalkashliklardan xoli emas edi.

Termizdan topilgan bu sopol idishlarni har tomonlama o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, ularni tayyorlagan termizlik kulollar o'z hunarining mohir ustalari bo'lganlar va bu sohada

ular katta yutuqlarga erishganlar.Ular faqat mohir kulollar bo'libgina qolmay, balki, malakali rassom, nozik estetik did sohiblari ham bo'lganlar. Topilgan sopol idishlar fikrimizning yorqin dalilidir. Idishlar termizliklarni yuqori rivojlangan moddiy madaniyatidan bizlarni voqif qilmoqda. O'rta asrlarda Termizda mavjud vo'lgan amaliy san'atlar orasida sopoldan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlarini aytib o'tish zarur. X-XI asrlarda yasalgalnari ayniqsa diqqatga sazovor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистонда Эркин ва Фаровон Яшайлик! Тошкент. 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 16 iyun.
3. Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqi.
3. Аннаев. Т.Ж.Раннесредневековые поселение Северного Токаристана. Ташкент.1988. С. 9-12.
4. Э.В.Ртвеладзе. Краеведение Сурхандарьи (Сборник статей). ТАШКЕНТ «УЗБЕКИСТАН» 1989.68-стр.
5. Bo'riyev O., Temuriylar davri manbalarida Chag'oniyon, T., 2001
6. Pidayev Sh. Qadimiy Termiz. Toshkent.2000.
7. Ўтмишга назар 3 - маҳсус сон. Khumoyun A. Nazarov. FROM THE HISTORY OF ANCIENT CITIES OF NORTHERN BACTARIA OF THE KUSHAN PERIOD. 85-бет.
8. Termiz.Buyuk yo'llar chorrahasidagi Ko'hna va yangi shahar. Sharq. Toshkent 2001.

### **Elektron adabiyotlar**

[www.arxeologiya.uz](http://www.arxeologiya.uz)